



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda til va nutqni rivojlantirishda musiqiy va she'riy faoliyatning ahamiyati

Jizzax shahar 9-DMTT tarbiyachilari

Uktamova Maloxat Raxmatullayevna

Normatova Gulzoda Okmirzayevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar nutqining rivojlanishida musiqiy va she'riy faoliyatning ahamiyati, ularning integratsiyalashuvi orqali erishiladigan natijalar va samarali metodlar haqida so'z yuritiladi. Bolalar til qobiliyatining shakllanishi borishida musiqiy va she'riy elementlarning uyg'unligi ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qanday yordam bera olishini ilmiy asoslar bilan yoritib beriladi

Abstract: This article discusses the importance of musical and poetic activities in the development of children's speech, the results achieved through their integration, and effective methods. In the course of the formation of children's language skills, the combination of musical and poetic elements can help to develop creative thinking.

Muqaddimani yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning ta'lim tarbiya va maktabgacha ta'lim haqidagi fikrlarini keltirib o'taman. «Biz yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz». Darhaqiqat, barkamol, yetuk va har tomonlama ilg'or farzandlarni tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tizimining o'rnini beqiyos sanaladi. Shunday ekan bu sohaga e'tiborni kuchaytirgan holda tizimning bir bo'lagini yoritishga harakat qilaman. Bolalar nutqning rivojlantirishi, ularning muloqot qobiliyati, ijtimoiy moslashuvi va umumiy intellectual o'sishi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Nutqiy faollikni rag'batlantirishda turli metodlar mavjud bo'lib, ulardan



biri musiqiy va she'riy faoliyatni integratsiyalash hisoblanadi. Ushbu yondashuv bolaning eshitishi, talaffuz, leksik va grammatik bilimlarini rivojlantirish bilan birgalikda ijodiy fikrlashib ham shakllantirib beradi. Musiqiy va she'riy faoliyat bolalar nutqining rivojlanishga quyidagi jihatlari orqali ta'sir ko'rsatadi:

Fonematik eshitish – bu bolalarning tovushlarni ajratish va eshitib tushina olish qobiliyatidir. Bu qobiliyat bolaning nutqini o'zlashtira olishi va yozish ko'nikmalarini shakllantirib borishda muhim rol o'ynaydi. Fonematik eshitish jarayonini rivojlantirishda turli o'yinlar va mashqlar qo'llash mumkin. Bunda foydalaniladigan o'yinlar bolalarning eshitish sezgilarini rivojlantirish, talaffuzini yaxshilash va yozuv ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Musiqa integratsiyasi natijasida bolalar kuy va ritm yordamida so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rganadilar. Bu bolalarda nutqni yanada tezroq shakllanishiga yordam beradi.

Talaffuz va uni to'g'ri o'rganish – bu so'z va tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olish san'atidir. To'g'ri qilingan talaffuz bolalarning nutqni tushunarli bo'lishi, muloqotda qulaylik yaratish va yozuv ko'nikmalarini yaxshilashga yordam bera oladi. Talaffuzni muhim jihatlari quyidagilardan iborat:

Tushunarli nutq – atrofdagilar bolani yaxshi tushunadi;

O'ziga bo'lgan ishonch - to'g'ri talaffuz qila olish orqali bola bermalol gaplasha oladi;

O'qish va yozishni oson o'rganish – tovushlarni to'g'ri qila olish yozuvni ham sezilarli yaxshilaydi.

Leksik bilimlar – tilshunoslikning so'z boyligi ya'ni lug'at boyligi va uning xususiyatlarini o'rganadigan sohasidir. U insonning nutq madaniyatini, fikrlash qobiliyatini va muloqot samaradorligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Leksik bilimlar fonetika, morfologiya, sintaksis va semantika bilan uzviy bog'liq. Va u tilshunoslik tadqiqotlarining muhim yo'nalishlarida biridir. Bolalarda bu sohada qo'shiq va she'rlar orqali yangi so'zlar va ularning grammatik tuzilishini yodda saqlab qolishiga yordam beradi.

Grammatik bilimlar – bu tilning tuzilishi va qoida – qonunlari haqida ma'lumot beradigan bilim sohasi hisoblanadi. Bolalar uchun grammatikani tushunarli va qiziqarli tarzda o'rgana olish muhimdir. Grammatik bilimning asosiy tushunchalari deb so'z turkumlarni, gap tuzilish shakli, so'z yasash, cimlo qoidalarini ko'rsatishimiz mumkin. Bolalar grammatikani yaxshi



tushunishlari uchun misollar bilan mashq qilish va musiqiy o'yinlarni integratsiyalash orqali o'rgatish mumkin.

Muloqot ko'nikmalari – musiqiy va she'riy faoliyatlar bolalarning hissiy emotsional ifoda va interaktiv nutqini rivojlantiradi.

Ijodiy tafakkurni – ijodiy tafakkur va musiqa faoliyati bir biriga bog'liq. Ijodiy tafakkur bolaning yangilik yaratish, mukammal g'oyalar ishlab chiqishi va ro'y beradigan hodisalarni noodatiy tarzda hal qila olish qobiliyatidir. Musiqa faoliyati esa insonning his - tug'ularini ifoda etish, ovozlari va ritmlar orqali o'z dunyoqarashini aks ettirish imkoniyatlarini beradi. Bu ikki tushuncha bir- biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, musiqa ijodi inson tafakkurining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

O'zini ifoda etish – o'zini ifoda etish bu insonning o'z fikrlarini, his – tuyg'ularini va g'oyalarini boshqalarga tushunarli va aniq tarzda yetkazish qobiliyatidir. Bolalar uchun bu qobiliyatlarni rivojlantirish bu ularning shaxsiyati va ijtimoiy ko'nikmalarining shakllanishiga ko'mak beruvchi vosita hisoblanadi. O'zini ifoda etishning ahamiyatli jihatlari quyidagilar kiradi:

Shaxsiy rivojlanish;

Ijtimoiy ko'nikmalar;

Emotsional barqarorlik.

Bolalar uchun o'zini ifoda etish qobiliyatini shakllantirish o'z shaxsiyati va ijtimoiy ko'nikmalarining shakllanishi muhim rol o'ynaydi. Ijodiy faoliyatlar, o'yinlar, nutq va art – terapiya kabi usullar bolalarga o'z tuyg'ulari va fikrlarini shakllanishiga katta yordam beradi.

Qo'shiqlar yordamida nutq o'stirish – bolalar uchun mo'ljallangan qo'shiqlar bola so'z boyligini oshiradi va ohanglar, jarangdor talaffuzni shakllantiradi. Masalan, matkabgacha ta'lim tashkilotlarida ularga tanish bo'lgan mashhur qo'shiqlardan foydalanish orqali ularning lug'at boyligi boyitib boriladi.

She'r va musiqani uyg'unlashtirish – bolalar she'rlarni musiqa orqali kuylasa, ularni tezroq yod oladilar. Ushbu metodda bolalarning eslab qolish qobiliyatini oshirish bilan birga, ifoda uslubi va nutq madaniyatini rivojlantirib borish mumkin.

Ritm mashqlari – bolalar nutqining aniqligi va tezligini oshirish uchun ritmga asoslangan ko'ngilochar o'yinlardan foydalanish mumkin. Qo'l qoqish, oyoq urish, qarsak chalish va shu



kabi boshqa harakatlar bilan uyg'unlashtirgan mashqlar nutq harakati tezligini oshirishga xizmat qiladi.

Rolli o'yinlar va drammatizatsiya – pedagoglar bolalar bilan birgalikda musiqiy ijod qilish va ularning nutq rivojlanishiga she'riy matnlar bilan boyitish orqali ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Musiqiy va she'riy faoliyatni integratsiyalash bolalar til va nutqni rivojlantirib borishda samarali usul hisoblanadi. Ushbu metod bolalar eshitish qobiliyati, talaffuzi, lug'at boyligi va muloqot ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bolalarning nutqiy faolligini oshirish va bolalarning ijodiy tafakkurni rivojlantirish imkonini beradi. Kelajakda bu faoliyatlardagi tadqiqotlar davom ettirilib, yangi pedagogik yondashuvlar ishlab chiqilishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Musiqiy va she'riy faoliyatni yanada rivojlantirish orqali ularning nutqiy va ijtimoiy qobiliyatlarini shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Takomillashgan Ilk qadam" davlat o'quv dasturi.07.07.2022
2. O'z. Res. Prezidentining " Maktabgacha ta'lim tizimining 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.08.05.2019
3. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi O'z. Res. PF.30.09.2017
4. "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PF-152- sonli.30.09.2024
5. "Maktabgacha ta'lim tarbiyaning davlat standarti".O'z. Res. VM – 802 -sonli qarori.22.12.2020.
6. O'z. Res. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 99 – sonli buyrug'i.28.08.2023.
7. SH.M.Mirziyoyev(2023) Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik.Toshkent.
8. G'ofurov A.(2012) Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. Toshkent.
9. Karimova D.(2018) Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda musiqa va she'riyatning ahamiyati.Toshkent .O'z MU nashriyoti.



- 10.Ergashev P.B.(2024) Musiqa va bolalar rivojlanishi: ta'limiy yondashuvlarning pedagogikasi.Joural of New Century Innovations
- 11.Gadoyeva M. (2024) Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy tinglash va ritmik tushunish kompetensiyalarini rivojlantirish.
- 12.Elektron saytlar:

prezident.uz

lex.uz

mpe.uz

uzedu

ziyouz

